QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIY SALOHIYATINI INTEGRAL INDEKSLAR ASOSIDA BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

Zoirov G‘olibjon Toshtemir o‘g‘li
Qarshi DU tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.21864802

Annotatsiya: Mazkur maqolada hududlarning ijtimoiy salohiyatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ijtimoiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilib, viloyatlar kesimida inson taraqqiyoti indeksi baholanadi. Shuningdek, hududlar o‘rtasidagi mavjud tafovutlar aniqlanib, ularning kelib chiqish sabablari hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: ijtimoiy salohiyat, multiplikativ model, real daromad, bilimlar iqtisodiyoti, , sog‘liq kapitali, raqamli infratuzilma.

Abstract: This article systematically analyzes the main indicators that determine the social potential of regions. The study examines the factors influencing social development and evaluates the Human Development Index (HDI) across regions. In addition, regional disparities and their causes, as well as their impact on socio-economic development, are analyzed.
Key words: social potential, multiplicative model, real income, knowledge economy, health capital, digital infrastructure.

Аннотация: В данной статье систематически анализируются основные показатели, определяющие социальный потенциал регионов. В ходе исследования изучаются факторы, влияющие на социальное развитие, а также проводится оценка индекса человеческого развития по регионам. Кроме того, анализируются существующие межрегиональные различия, причины их возникновения и их влияние на социально-экономическое развитие.
Ключевые слова: социальный потенциал, мультипликативная модель, реальные доходы, экономика знаний, капитал здоровья, цифровая инфраструктура.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ–12-sonli «2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allik darajasini qisqartirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda aholi daromadlarini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan [1]. Mazkur vazifalar hududlarning ijtimoiy salohiyatini kompleks baholash, mavjud imkoniyatlarni aniqlash va integral indekslar asosida tahlil qilishning dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Mamlakat hududlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bunda hududlarning ijtimoiy salohiyati, jumladan, aholi turmush darajasi, ta’lim va sog‘liqni saqlash sifati, bandlik darajasi hamda boshqa ijtimoiy ko‘rsatkichlar ularning umumiy rivojlanish salohiyatini belgilovchi asosiy tarkibiy qismlar sifatida namoyon bo‘ladi.

“Ijtimoiy salohiyat - bu siyosiy, ma’naviy, falsafiy, axloqiy, madaniy va etnik xarakterdagi mavjud yoki mumkin bo‘lgan turmush darajasining mezonlari va cheklovlari doirasida hayotiy faoliyatni tashkil etish qobiliyati hamda shu nuqtayi nazardan turmush darajasi sifat ko‘rsatkichlaridir”[2].

M. Malkina ijtimoiy salohiyatni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YHM, daromadlarning YHMdagi ulushi, yashash qiymati indeksi va daromadlar differensiallashuvi kabi ko‘rsatkichlar asosida baholaydi. Uning fikricha, mazkur omillar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muvozanati va ijtimoiy salohiyatini belgilaydi[3].

E. Mettini va N. Prisyajnaya ijtimoiy salohiyatning asosiy omili sifatida «sog‘liq kapitali»ni e’tirof etadi. Ularning fikricha, salomatlik nafaqat jismoniy holatni, balki psixologik barqarorlik, ijtimoiy faollik va mehnatga layoqatlilikni ham o‘z ichiga oladi hamda iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi[4].

O‘zbekiston sharoitida mazkur yondashuv sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati bilan uyg‘unlashadi. Shu jihatdan, «sog‘liq kapitali» konsepsiyasi inson kapitalini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

A.Burlea-Schiopoiu va Z.Znagui mintaqaning ijtimoiy salohiyatini bilim ishlab chiqarish va bilimga asoslangan iqtisodiy model bilan bog‘laydi. Ularning yondashuvida “bilimlar iqtisodiyoti” samarali institutlar, raqobatbardosh ta’lim, fan va innovatsiyalar, malakali inson kapitali hamda texnologik infratuzilma birligida shakllanadi[5].

O‘zbekiston sharoitida ushbu yondashuv “Bilimga asoslangan iqtisodiyot”, “Inson kapitalini rivojlantirish Milliy strategiyasi” va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturlari bilan uyg‘unlashib, ilm-fan, innovatsiya va raqamli infratuzilma rivoji orqali ijtimoiy salohiyatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Demak, hududlarning ijtimoiy salohiyati asosan uchta muhim yo‘nalish, ya’ni uzoq va sog‘lom hayot, bilim va ta’lim darajasi hamda munosib turmush darajasi bilan tavsiflanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining metodologiyasiga ko‘ra, 2010-yildan boshlab inson taraqqiyoti indeksi aynan shu ko‘rsatkichlar asosida hududlarning rivojlanish darajasini baholashda qo‘llanib kelinmoqda.

Sog‘liq indeksi (uzoq umr ko‘rish indeksi – LEI) tug‘ilish paytidagi kutilayotgan o‘rtacha umr davomiyligi asosida aniqlanadi va aholining salomatligi hamda hayot sifatini baholashga xizmat qiladi.

$$LEI = (LE - 20) / (85 - 20)$$

bu yerda: LEI – tug‘ilish paytidagi kutilayotgan o‘rtacha umr davomiyligi (yil hisobida) bo‘lib, indeks qiymati 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda aniqlanadi.

- **Ta’lim indeksi (Education Index – EI)** aholining ta’lim darajasini baholash uchun kattalarning o‘rtacha ta’lim olgan yillari (**MYS**) hamda bolalarning kutilayotgan ta’lim yillari (**EYS**) asosida hisoblanadi.
-

$$MYSI = MYS / 15$$

bu yerda: MYS - *kattalar tomonidan o‘rtacha o‘qilgan ta’lim yillari soni.*

$$EYSI = EYS / 18$$

bu yerda: EYS - *bolalar uchun kutilayotgan ta’lim yillari son*

Yakuniy **ta’lim indeksi (EI)** esa ushbu ikki indeksning o‘rtacha arifmetik qiymati sifatida aniqlanadi:

$$EI = (MYSI + EYSI) / 2$$

Daromad indeksi (Income Index – II) aholi turmush darajasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich bo‘lib, u aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi milliy daromad (YMD) yoki yalpi hududiy mahsulot (YHM) asosida hisoblanadi. Hisob-kitoblarda daromadlarning tabiiy logarifmidan foydalaniladi, minimal qiymat sifatida 100 AQSh dollari, maksimal qiymat sifatida esa 75 000 AQSh dollari qabul qilinadi.

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida hududlarning ijtimoiy salohiyati kompleks tarzda baholanadi.

$$II = \frac{\ln(GNI_{pc}) - \ln(100)}{\ln(7500) - \ln(100)}$$

bu yerda: GNI_{pc} - xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha aholi jon boshiga yalpi milliy daromad (AQSh dollarida), 100$ – minimal chegaraviy qiymat, 75 000$ – maksimal chegaraviy qiymat hisoblanadi.

Alohida komponent indekslari aniqlab olingandan so‘ng, Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) ularning geometrik o‘rtacha qiymati sifatida hisoblanadi. Hisoblash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$HDI = \sqrt[3]{LEI \cdot EI \cdot II}$$

bu yerda: LEI *- sog‘liq indeksi (umr ko‘rish davomiyligi indeksi),* ***EI*** *- ta’lim indeksi,* ***II*** *- daromad indeksi.*

Mazkur metodologiyaga ko‘ra, HDI tarkibiga kiruvchi har bir indeks umumiy ko‘rsatkichga teng ulushda ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, HDI hududlarning sog‘liqni saqlash, ta’lim va iqtisodiy rivojlanish darajalari o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasida inson taraqqiyoti indeksi so‘nggi yillarda barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etib, 2024-yil yakunlariga ko‘ra 0,74 darajaga yetdi. Bu esa mamlakatning «yuqori inson taraqqiyoti» toifasiga mansubligini ko‘rsatadi.

Quyida O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy birliklari kesimida 2021–2024-yillar davomida inson taraqqiyoti indeksi ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili keltirilgan (1-jadvalga qarang). Ushbu ma’lumotlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash va ular o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

1 - jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha inson taraqqiyoti indekslari (2021-2024-yillar)

Hudud	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Toshkent sh. (Toshkent viloyati bilan)	0,80	0,82	0,84	0,85
Samarqand viloyati	0,74	0,76	0,78	0,79
Namangan viloyati	0,73	0,75	0,78	0,78
Qoraqalpog’iston Respublikasi	0,70	0,73	0,74	0,75
Xorazm viloyati	0,70	0,73	0,74	0,75
Navoiy viloyati	0,70	0,72	0,74	0,74
Buxoro viloyati	0,70	0,72	0,74	0,74
Jizzax viloyati	0,68	0,71	0,74	0,74
Andijon viloyati	0,66	0,69	0,74	0,74
Farg’ona viloyati	0,66	0,69	0,74	0,74
Surxondaryo viloyati	0,67	0,70	0,74	0,74
Qashqadaryo viloyati	0,65	0,67	0,73	0,74
Sirdaryo viloyati	0,67	0,70	0,73	0,73

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha (o‘rtacha)	**0,71**	**0,72**	**0,73**	**0,74**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadval ma’lumotlari 2021–2024-yillar davomida barcha hududlarda inson taraqqiyoti indeksi o‘sish tendensiyasini namoyon etganini ko‘rsatadi. Xususan, Qashqadaryo viloyatida HDI ko‘rsatkichi 2021-yildagi 0,65 darajadan 2024-yilda 0,74 ga yetdi. Shu tariqa, viloyatda mazkur ko‘rsatkichning o‘sishi qariyb 0,08 punktni tashkil etdi. Bu holat Qashqadaryo viloyatida inson taraqqiyoti sur’atlari respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lganini ko‘rsatsa-da, hudud umumiy reytingda quyi o‘rinlarda saqlanib qolmoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Toshkent shahri va Toshkent viloyati inson taraqqiyoti darajasi bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallagan. Keyingi o‘rinlarda Samarqand, Namangan va Buxoro viloyatlari qayd etilgan bo‘lsa, Qashqadaryo viloyati 2024-yil yakunlariga ko‘ra eng past ko‘rsatkichlardan birini namoyon etgan.

Omillar tahlili natijalari Qashqadaryo viloyatida inson taraqqiyoti indeksiga, avvalo, aholi salomatligi va demografik holat, undan keyin esa ta’lim darajasi hamda iqtisodiy omillar kuchli ta’sir ko‘rsatishini aniqlash imkonini berdi. Shu sababli, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish orqali hududning ijtimoiy salohiyatini yanada yuksaltirish mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqaror saqlanishi va ijtimoiy sohalarga yo‘naltiriladigan investitsiyalarning ko‘payishi inson taraqqiyoti indeksining yanada oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-12-son qarori.
2. Aminov F. Mintaqada iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ilmiynazariy asoslari.// Innovatsion iqtisodiyot. №4. 2023, 9-b.
3. М.Малкина. Социальное благополучие регионов российской федерации. Киберленинка. 2017. №. С. 7-9.
4. Э.Меттини, Н.В.Присяжная. Здоровье и человеческий капитал: к вопросу социального благополучия населения. https://cyberleninka.ru/article/n/zdorovie-i-chelovecheskiy-kapital-k-voprosu sotsialnogoblagopoluchiya -naseleniya.
5. A.Burlea-Schiopoiu, Z.Znagui. Knowledge Production in a Territorial Network of Organizations: Identifying the Determinants in the Case of Moroccan Technopole. https://www.econstor.eu/bitstream/10419/320866/1/admsci-14-00043.pdf
6. https://www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti.